



IELTS VA CEFR SERTIFIKATLARINING AHAMIYATI.

Amandavlatova Sabohat Jovli qizi

*Samarqand Davlat Chet tillari institute Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 2-bosqich, 21.23
guruh talabasi.*

Ibadova Nafisa Ahmatillayevna

Supervisor

Abstrakt: *Bu maqolada hozirgi kunda mamlakatimizda chet tillarini bilishga bo'lgan talabning ortishi, IELTS va CEFR sertifikatlariga qaratilgan e'tibor, ular qo'lgan kiritilgandan keyingi imtiyozlar va ustamalar. Bu sertifikatlar haqida tushuncha, o'xshash tomonlari va farqli jihatlari haqida keng yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *IELTS, CEFR, reading (o'qib tushunish), writing (yozish), listening (eshitib tushunish), speaking (gapirish), task (topshiriq), ustama (qo'shimcha mablag')*

Shu yilning 6-may kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida video sektor bo'lib o'tdi. Davlatimiz rahbari bu yig'ilishda ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish bo'yicha quyidagicha nutq so'zladi: " Biz katta e'tiborni ta'lim sohasini yanada takomillashtirishga qaratishimiz lozim deb o'ylayman. Ayniqsa fizika va xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga binoan, yurtimizdagi har yilgi maktab, litsey, kollej va universitet bitiruvchilari kamida ikkita tilni mukammal o'rganishlari zarur".

Yurtimizda kun sayin xorijiy tillarini o'rganishga, shu bilan birga IELTS va CEFR sertifikatlariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Bu esa chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini puxta o'rganishni talab etadi. Avvalo, IELTS va CEFR sertifikatlar haqida ma'lumotlarni ko'rib chiqsak. IELTS nima? Qanday mezon va talablar asosida uni qo'lga kiritish mumkin? IELTS bu Xalqaro til bilish darajasini aniqlovchi test bo'lib, qisqartma hisoblanadi. IELTS-International English Language Testing System, ya'ni o'zbek tiliga tarjima qilinganda Xalqaro Ingliz tilini Bilishni Aniqlash Tizimi degan ma'noni anglatadi. Bu sertifikatning ikki turi mavjud bo'lib, ular General va Academic. General bu umumiy degan ma'noni anglatadi va migrantlar uchun mo'ljallangan. Academic bo'lsa ta'lim oid tushuncha bo'lib, ilm-fanni chuqurroq o'rganuvchilar uchundir.

Har ikkalasida ham to'rttadan skill ya'ni mahoratni aniqlovchi topshiriqlar beriladi. Ular quyidagilardan iborat: Listening (eshitish), reading (o'qib tushunish), writing (yozish) va speaking (gapirish). Listening 4 qism va 40 savolni o'z ichiga oladi. Buni bajarish uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Reading bo'lsa 3 qismdan va 40 savoldan iborat bo'lib, ishlash uchun 60 daqiqa vaqt ajratiladi.



Writingga kelsak, o'zgina o'zgacha, sababi 2 topshiriqdan beriladi. Birinchi topshiriqda Academic turi uchun har xil diagrammalar, jadvallar, chizmalar, biror bir mahsulotni ishlab chiqarish jarayonidan misollar keltiriladi va bularni 20 minut davomida tasvirlash lozim. General yo'nalishda birinchi topshiriq uchun xat yozish topshirig'i 20 daqiqa uchun mo'ljallangan. Ikkinchi topshiriqda bu ikki yo'nalishdagilar uchun ham bir xil bo'lib, global muammolar va ularni qanday qilib bartaraf etish bo'yicha 250 ta so'zdan iborat inshoni 40 minutda yozish kerak bo'ladi. Umumiy olganda writing uchun 1 soat vaqt beriladi. Speaking imtihoni alohida, listening, reading va writing sinovlaridan keyin bo'lib o'tadi. Speaking 3 part ya'ni qismdan tashkil topadi va bu qismlar uchun vaqt 11 daqiqadan 14 daqiqagachani tashkil etadi. Baholash sistemasi 4 ta qobilyatlarning har biri eng kami 0 balldan eng yuqori 9 ball baholanadi.

CEFR sertifikat, O'zbekiston Respublikasing, o'zimizni milliy darajamiz. Bu ham xuddi IELTS kabi Chet tillarini bilish darajasini aniqlash testi hisoblanadi. Ammo ba'zi jihatlari bilan undan farq qiladi. Misol uchun IELTS sertifikati dunyoning ko'pgina davlatlarida tan olingan, lekin CEFR sertifikatidan faqatgina O'zbekiston hududida bemaolol foydalanishingiz mumkin. Shunga ko'ra bu ikki sertifikatlar uchun imtihon topshirish naxrlari ham keskin farq qiladi. Masalan IELTS imtihoni uchun to'lov 2 000 000 so'm atrofida bo'lsa, CEFR uchun atigi 445 000 so'm mablag' sarflandi. Imtihon jarayonida ham ba'zi kichik farqlar mavjud. CEFR listening testini ikki marta misollari bilan eshitishni imkoniyati bor va asosan multiple choice ya'ni variantlardan birini tanlash bo'lsa, IELTS eshitib tushunishda har xil turdagi listening bo'lishi mumkin. Ko'zga tashlanadigan farq shundaki, CEFR writing faqatgina letter (maktub)dan iborat. Shu bilan birga, IELTS reading 3 qism va CEFR reading 4 qismni o'z ichiga olgan. Qo'shimcha o'rnida, CEFR testining baholash tizimi darajalar bo'yicha: A1 darajadan C2 darajagacha bo'ladi. A1 daraja eng past ko'rsatkich hisoblanadi va boshlang'ich bilimlarni talab qiladi. Eng yuqori natija esa bu C2 va bu ko'rasatgichga dunyo bo'yicha sanoqli insonlar egadirlar. Natijalarni bilish, sertifikatlarni olish ham bu ikkisida turlichadir. IELTS 13 kunda natijalarini e'lon qilsa, CEFR 20 kundan 1oygacha bo'lishi mumkin.

Milliy va xalqaro til bilish darajasini aniqlash testdan yuqori natijani qo'lga kiritishning qanday afzalliklari bor? Milliy sertifikat bu CEFR, xalqaro ingliz tili bilish darajasini baholash tizimi-IELTS imtihonlaridan yuqori ball olish biz uchun ko'pgina imkoniyatlar eshigini ochadi. Misol sifatida aytadigan bo'lsak, CEFRdan B2 va undan yuqori natijali sertifikatni qo'lga kiritgan abituriyentlarga qaysi tildan olgan bo'lsa, shu til bo'yicha davlat imtihonida maksimal ball beriladi.



Hozirgi kunga kelib yurtimizda C1 va undan yuqori sertifikatni bor bo'lgan talabalar diplom uchun topshiriladigan davlat test sinovlaridan ozod etilib, magistratura bosqichiga kirish imtihonlarida qo'shimcha ball taqdim etilmoqda. Tanganing ikkinchi tomoni shundaki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qaroriga binoan chet tillarini o'qitishga ixtisoslashtirilgan universitet va institutni tamomlayotgan talabalar bakalavr diplomini olish uchun IELTS 7, CEFR C1 va undan yuqori natijali sertifikatni qo'lga kiritgan bo'lishlari lozim. Bu qonun rasman 2022-2023 o'quv yilidan boshlab kuchga kirdi.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlarida o'qishni tamomlagan yetuk mutaxassis va kadrlar soni oshib bormoqda. Natijada kun sayin raqobat ortib bormoqda. Shu bilan birga so'nggi o'n yil ichida ingliz tili o'qituvchilari soni anchagina ko'paydi. Bu esa pedagoglarga qo'yilayotgan talablarning kengayishiga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda IELTSdan 7 yoki CEFRdan C1 olgan o'qituvchilarga 50 foiz ustama berish belgilangan. Bu ustama eng chekka qishloqlarda 100 foizni tashkil qiladi. Bu faqat ingliz tilini o'qituvchi pedagoglari uchun beriladigan qo'shimcha pul mufotidir. 50 foizlik ustama o'qituvchilarning oylik daromadiga ish xaqqining yarim baravar miqdorda pul qo'shib berilishidir.

Xulosa o'rnida, IELTS xalqaro bo'lganligi sababli boshqa davlatlarga o'qishga kirish yoki har xil xorijiy mamlakatlardagi top universitetlarning stipendiyalari uchun hujjat topshirishda kamida 7 daraja talab etadi. Ammo xorijiy nomdor universitetlarda ta'lim olish uchun IELTS sertifikatining o'zi kamlik qiladi. Biz dunyoning top universitetlarida tahsil olish imkoniyatini qo'lga kiritish uchun juda ko'p o'z ustida ishlashimiz, ko'pgina sohalarni o'rganishim kerak albatta. Eng muhimi jamiyatda juda ham faol ishtirok etishimiz shart. O'ylaymanki, deyarli barcha talabalarning orzusi chet davlatlarning top universitetlarida bakalavr va magistratura bosqichlarini har xil turdagi grandlar yutgan holda o'qib, o'z bilimlarini chuqurlashtirish va jamiyatga tadbiiq etishdir. Bu orzuni amalga oshirish uchun yurtimizda bizga yaratilayotgan imkoniyatlar eshigi yanada keng ochilmoqda. Biz yoshlar bu imkoniyatdan foydalangan holda davlatimiz, xalqimiz va albatta prezidentimizning bizga bildirilgan ishonchini oqlab, qo'limizdan kelganicha o'qib, izlanib Vatanimizni yuksaltirishga, uning bayrog'ini ko'klarga ko'tarishga va'da beramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://oliygoh.uz/post/cefr-imtihoni-haqida-gaplashamiz>



2. <https://kun.uz/uz/news/2020/06/14/qabul-2020-chet-tili-sertifikatlari-imtiyozlar-va-istisnolar-haqida-batafsil>
3. <https://oliygoh.uz/post/cefr-imtihoni-haqida-gaplashamiz>
4. <https://grantlar.uz/blog/cefr/>
5. <https://uzreport.news/society/c1-darajasidagi-xalqaro-sertifikatga-ega-oqituvchilar-uchun-qoshimcha-qaror-qabul-qilindi>
6. <https://hasanboy.uz/ielts-haqida-umumiy-malumot/>
7. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo qilamiz”. Toshkent: «O‘zbekiston» - 2016. - 12-14 b.
8. Bekturdiyeva G.S “THE ROLE OF CEFR IN EDUCATIONAL SYSTEM OF UZBEKISTAN”, SCIENTIFIC JOURNAL “Golden Brain” April 2023 ISSN: 2181 - 4120.
9. Jorayeva D.K “DEVELOPMENT OF EDUCATION AND PEDAGOGICAL THOUGHTS IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE” V Международнѳй журнал научных исследований “Научнѳй Фокус” 20.05. 2023-175
10. Multilevel master reading [Text]: o‘quv qo‘llanma\Yu. Mirjoniv, J.Qutimov. - Toshkent: “Factor books”, 2023.- 432 b.
11. Cambridge University Press and Assessment ‘Cambridge English IELTS 17 Academic’ 2022 ISBN 978-1-108-93381-0